O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 30 - aprel 135-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 17-apreldagi “Viloyat hududidagi ayrim yaroqsiz holatdagi obyektlarni buzish to‘g‘risida”

284-10-0-Q/24-son qarorining ijrosi haqida

Toshkent viloyati hokimining 20240-yil 17-apreldagi “Viloyat hududidagi ayrim yaroqsiz holatdagi obyektlarni buzish to‘g‘risida” 284-10-0-Q/24-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 20240-yil 17-apreldagi “Viloyat hududidagi ayrim yaroqsiz holatdagi obyektlarni buzish to‘g‘risida” 284-10-0-Q/24-son qarori** ma’lumot va ijro uchun uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasining bino-inshootlarning poydevori g‘ishtdan bo‘lganligi sababli asosiy yuk ko‘taruvchi konsruksiyalari ularni 2 (ikki) qavatli bino-inshoot qilib qurish imkonini bermasligini hamda xulosalarga asosan bino-inshootlarning asosiy yuk ko‘taruvchi konsruksiyalarini kuchaytirish uchun katta mablag‘ talab etishini inobatga olib, bino-inshootlarni buzish to‘g‘risida kiritilgan takliflar ma’qullanganigi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasining xulosalariga asosan Toshkent tumani Chig‘atoy MFY hududidagi 18-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotining foydalanishga yaroqsiz 1 (bir) qavatli bino-inshootlarini belgilangan tartibda buzishga ruxsat berilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Viloyat maktab va maktabgacha ta’lim boshqarmasi (I.Akbarov) Toshkent tumani Chig‘atoy MFY hududidagi 18-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotining foydalanishga yaroqsiz 1 (bir) qavatli bino-inshootlarini belgilangan tartibda buzish uchun shaxsan mas’ul etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda:

buzish natijasida yaroqli deb topilgan qurilish materiallarini qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

binolarni buzilishidan bo‘shaydigan yer maydonidan kelgusida samarali foydalanish choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin

Tuman hokimi **O.Rustamov**